XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 7 - oktabr VI-48-198-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumani “Karsagan” mahalla fuqarolar yig’inidagi mavjud ayrim geografik obektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida” gi 295-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 02-iyundagi 02-01/73/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 20-iyundagi 07-18/4112-sonli murojaatnomasi asosida Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 19-iyuldagi 08-06116-sonli ekspertiza xulosalarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Djumayevning tumandagi ayrim Geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Tuman komissiyasining 2022-yil 02-iyundagi 02-01/73/592-sonli yig‘ilish bayoni, viloyat komissiyasining 2022-yil 20-iyundagi 07-18/4112-sonli murojaatnomasi asosida Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 19-iyuldagi 08-06116-sonli ekspertiza xulosasi ma’qullansin.

3. Tuman komissiyasi tomonidan tumandagi “Karsagan” mahalla fuqarolar

yig‘inlari bo‘yicha mahalla kesimida nomlash bo‘yicha yig‘ilish bayoni hamda Respublika Kadastr agentligining 2022-yil 19-yuldagi 08-06116-sonli xati hamda tasdiqlangan ekspertiza xulosasiga asosan qonunga muvofiq deb topilgan ko‘cha nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud geografik obyektlar (nomsiz ko‘chalar)ning nomlash bo‘yicha berilgan nomlar Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining mazkur qarori asosida tasdiqlangandan so‘ng qarorning bir nusxasi Respublika davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga hamda Respublika Kadastr agentligiga taqdim etilsin.

5. Ushbu qaror “Xalq va Hayot” gazetasi va tuman hokimligi rasmiy saytida e’lon qilinsin.

6. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.T.Djumayev**

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman
Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-48-198-8-108-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatalari Oltinsoy tuman Kengashining 2022 yil “____” sentabrdagi “_____”-son qaroriga bayoniga 1-ilova

Tumanda mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha berilgan nomlarni Respublika Kadastr agentlgi tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tkazilib, xulosaga asosan qonunga muvofiq deb topilgan ko‘chalarning nomlari ro‘yxati

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspertiza xulosasi:
1	2	3	4	5	6
1	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Nashida	Qonun hujjatlariga muvofiq.
2	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Birdamlik	Qonun hujjatlariga muvofiq.
3	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Avaz O'tar	Qonun hujjatlariga muvofiq.
4	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Birdamlik	Qonun hujjatlariga muvofiq.
5	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Avesto	Qonun hujjatlariga muvofiq.

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspertiza xulosasi:
6	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Amudaryo	Qonun hujjatlariga muvofiq.
7	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Uchterak	Qonun hujjatlariga muvofiq.
8	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Boshoqli	Qonun hujjatlariga muvofiq.
9	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Gulxaniy	Qonun hujjatlariga muvofiq.
10	**Ko‘cha**	“Karsagan” MFY	Nomsiz	Ariqbo'yi	Qonun hujjatlariga muvofiq.